



**«UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS» MCHJ
MONOPOLIYAGA QARSHI KOMPLAYENS XAQIDAGI 2025-YIL HISOBOTI**

T/r	Tadbir	Amalga oshirish mexanizmi
1.	O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi kiritilayotgan o'zgartirishlar monitoringi	O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi hamda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchiligi kiritilayotgan o'zgartirishlar tizimli asosda monitoring qilinib borildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori hamda 2025-yil 11-martdagi 159-son qarorlari, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar o'rganildi. O'rganish natijalariga ko'ra, amaldagi lokal hujjatlarni qo'llash bo'yicha qo'shimcha tartiblarni belgilash ehtiyoji mavjud emasligi sababli ularni o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish zarurati tug'ilmadi.
2.	Kompaniya faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining talablariga rioya etilishini ta'minlash	O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining talablariga rioya etilishini ta'minlash
2.1	O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha choralarni ko'rish	O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash hamda xaridlarni amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida komplayens xizmati tomonidan xarid komissiyasi a'zolari va xarid ishtirokchilari o'rtasida qarindoshlik, manfaatlar to'qnashuvi hamda o'zaro bog'liqlik mavjudligi doimiy ravishda tekshirib borilmoqda. O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi. Shu bilan birga, xarid ishtirokchilari va Kompaniya xodimlari (<i>xarid komissiyasi a'zosi bo'lmagan</i>) o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganligi sababli 2 nafar ishtirokchi, shuningdek o'zaro bog'liqlik (affillanganlik) mavjudligi aniqlanganligi sababli 1 nafar ishtirokchi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 42-moddasiga muvofiq xarid jarayonida qatnashishdan chetlashtirildi. Xarid hujjatlariga raqobatni cheklovchi shartlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida komplaens bo'limi har bir xarid hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi.

2.2	Ichki hujjatlarni joriy etishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha choralarni ko'rish	Monopoliyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablarini joriy etish maqsadida Kompaniya ichki hujjatlarining loyihalarini tasdiqlashda kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga komplayens bo'limi boshlig'i kiritilgan bo'lib, ichki hujjat loyihalari monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan ekspertizadan o'tkazib boriladi.
2.3	Kompaniyaning marketing faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Reklama-axborot materiallari (RAM), shuningdek saytda joylashtiriladigan axborotni kelishishda komplayens bo'limi boshlig'ini kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga kiritildi.	Kompaniyaning marketing faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Reklama-axborot materiallari (RAM), shuningdek saytda joylashtiriladigan axborotni kelishishda komplayens bo'limi boshlig'ini kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga kiritildi.
3.	Xodimlarning O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi sohasida huquqiy ongini oshirish	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'quv markazi tomonidan tashkillashtirilgan davlat xaridlari bo'yicha kurslarida Kompaniyaning Xaridlar departamentidan 16 nafar xodim o'qitilib, ularning malakasi oshirildi.
4.	Mas'ul bo'lim xodimlarining Monopoliyaga qarshi komplayens sohasida malakasini oshirish	Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash maqsadida "Texnik shartlar va texnik baholash mezonlari (TBM) loyihalarini ishlab chiqishda, shuningdek, ishtirokchilarni baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasining monopoliyaga qarshi va korrupsiyaga qarshi qonunchiligi va "UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" MChJning davlat xaridlari sohasidagi ichki normativ hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash" mavzusida maxsus o'quv materiallari ishlab chiqilgan va Ushbu maxsus o'quv materiallari asosida o'quv mashg'ulotlari o'tkazilgan, 94 nafar xodim seminarlarda qatnashdilar.
5.	Kompaniya faoliyatida monopoliyaga qarshi qonunchilik buzilishi xatarlarini aniqlash	2024-yil oxirida Kompaniya xodimlari monopoliyaga qarshi komplayens sohasida vakolatli organ tomonidan tashkillashtirilgan oflayn kurslarda ishtirok etib, zarur bilim va ko'nikmalarni egallagan hamda malakasini oshirganligini inobatga olgan holda, navbatdagi malaka oshirish tadbirlarini 2026-yil boshida tashkil etish rejalashtirilgan.
		Monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan yuborilgan xatlar tizimli ravishda tahlil qilinmoqda. 2024-yilning yakuniga ko'ra 73 ta xat o'rganib chiqildi. Kompaniya tomonidan qonun buzilishi holatlari aniqlanmagan. Vakolatli organga belgilangan tartibda javob xatlari yuborilgan.
		Kompaniyaning raqobatni va iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklovchi normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlari tahlili tizimli ravishda oshiriladi. Bugungi kunga o'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadi.

	Kompaniya tomonidan tuzilgan shartnomalarni quyidagilar yuzasidan tizimli ravishda tahlil qilinadi: - alohida xo'jalik subyektlariga ularni boshqa subyektlarga nisbatan ustuvor vaziyatga qo'yadigan asossiz imtiyozlar, afzalliklar berish, shuningdek alohida xo'jalik subyektlariga boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlarni belgilash; - til biriktirish va kartel kelishuvlari alomatlar mavjudligi. Bugungi kunga o'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadi.
6.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining faoliyatiga doir yillik hisobotni tayyorlash
7.	Monopoliyaga qarshi organ bilan hamkorlik qilish
8.	Keyingi yil uchun monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarining buzilishi xavfini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash

Tayyorlandi:

Komplayens bo'limi boshlig'i

Maksudova O.A.

Kompaniya tomonidan tuzilgan shartnomalarni quyidagilar yuzasidan tizimli ravishda tahlil qilinadi:

- alohida xo'jalik subyektlariga ularni boshqa subyektlarga nisbatan ustuvor vaziyatga qo'yadigan asossiz imtiyozlar, afzalliklar berish, shuningdek alohida xo'jalik subyektlariga boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlarni belgilash;
- til biriktirish va kartel kelishuvlari alomatlar mavjudligi.

Bugungi kunga o'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishiga doir hisobot belgilangan muddatlarda tayyorlanib, unda aniqlangan xatarlar, ularni kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar hamda monopoliyaga qarshi komplayensning muhim ko'rsatkichlariga erishish holati aks ettirilgan. Hisobot Kompaniyaning rasmiy veb-saytida joylashtirilib, belgilangan tartibda vakolatli monopoliyaga qarshi organga yuborildi.

Monopoliyaga qarshi organ bilan yangi loyihalar va takliflarga doir ma'lumotlarni elektron pochta, telegram va rasmiy sayt orqali almashish ishlarini muntazam ravishda amalga jshiriladi.

Kompaniyaning monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzilishi xavflarni qayta baholash maqsadida funksiyalar tahlil qilinib Bosh direktorning 2024 yil 11 yanvardagi 01/0058-II sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Xavflar xaritasi actual deb topildi.

Kompaniyaning monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzilishi xavfi mavjud bo'lgan funksiyalarini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining buzilishi xavfini kamaytirish bo'yicha 2026-yil uchun Yo'l xaritasi ishlab chiqilgan va Bosh direktorning 2026 yil 22 dekabrda 01/0645-II sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.